

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: oybekpirmatov5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2015–2024-yillar davomida O'zbekistonda raqamli platformalarning kichik biznes subyektlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sirini o'rganuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari hamda 150 ta kichik biznes subyekti orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga tayanadi. Ma'lumotlar korrelyatsion va ko'p omilli regressiya tahlili usullarida qayta ishlangan. Natijalarga ko'ra, raqamli platformalardan foydalanuvchi kichik biznes subyektlari ulushi 18,4 foizdan 71,5 foizgacha oshgan, shu davrda ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni 227,3 mingdan 412,9 mingtagacha, kichik biznesning YalMdagi ulushi esa 56,1 foizdan 64,2 foizgacha yetgan. Regressiya modeli bo'yicha raqamli platformalar qamrovining 1 foiz punktga oshishi kichik biznesning YalMdagi ulushini o'rtacha 0,42 foiz punktga oshirishi bilan bog'liq. Tadqiqot xulosalari raqamli platformalarni tranzaksion xarajatlarni kamaytiruvchi va bozorga kirishni kengaytiruvchi tashkiliy-iqtisodiy infratuzilma sifatida ko'rib, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: raqamli platformalar, kichik biznes, tadbirkorlik, platforma iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya, YalM, multikollinearlik, O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье анализируются организационно-экономические механизмы влияния цифровых платформ на развитие предпринимательской деятельности субъектов малого бизнеса в Узбекистане за период 2015–2024 годов. Исследование основано на официальных данных Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан, а также на результатах опроса, проведенного среди 150 субъектов малого бизнеса. Полученные данные обработаны с использованием методов корреляционного и многофакторного регрессионного анализа. Результаты исследования показывают, что доля субъектов малого бизнеса, использующих цифровые платформы, увеличилась с 18,4% до 71,5%, при этом количество зарегистрированных предпринимателей возросло с 227,3 тыс. до 412,9 тыс., а доля малого бизнеса в валовом внутреннем продукте страны увеличилась с 56,1% до 64,2%. Согласно результатам регрессионной модели, увеличение охвата цифровыми платформами на 1 процентный пункт связано с ростом доли малого бизнеса в ВВП в среднем на 0,42 процентного пункта. В выводах исследования цифровые платформы рассматриваются как организационно-экономическая инфраструктура, способствующая снижению транзакционных издержек и расширению доступа к рынкам, а также предлагаются практические рекомендации по дальнейшей поддержке их развития.

Ключевые слова: цифровые платформы, малый бизнес, предпринимательство, платформенная экономика, цифровая трансформация, ВВП, мультиколлинеарность, Узбекистан.

Abstract: This article examines the organizational and economic mechanisms through which digital platforms have shaped the entrepreneurial development of small business entities in Uzbekistan over 2015–2024. The study draws on official State Statistics Committee data (2015–2024) and a survey of 150 small business entities, analyzed through correlation and multiple regression techniques. The findings show that the share of small enterprises using digital platforms rose from 18.4% (2015) to 71.5% (2024), the number of registered entrepreneurs increased from 227.3 thousand to 412.9 thousand, and the SME contribution to GDP grew from 56.1% to 64.2%. The regression model indicates that a one-percentage-point increase in digital platform coverage is associated with an average 0.42 percentage-point increase in the SME share of GDP. The study concludes that digital platforms function as organizational-economic infrastructure that lowers transaction costs and broadens market access, and offers policy recommendations for their continued support.

Keywords: digital platforms, small business, entrepreneurship, platform economy, digital transformation, GDP, multicollinearity, Uzbekistan.



KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi butun dunyoda iqtisodiy tuzilmalar va tadbirkorlik faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli platformalar biznesni yaratish, boshqarish va kengaytirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy vositasiga aylangan bo'lib, ular tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi bog'lanishni osonlashtiradi, bozorga kirishni kengaytiradi va innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantiradi [9; 10]. O'zbekistonda raqamli platformalarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi strategik ahamiyati davlat siyosati darajasida tan olingan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son¹ Farmonida raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, raqamli infratuzilmani kengaytirish va raqamli yechimlar orqali tadbirkorlik uchun qulay institutsional sharoitlar yaratish vazifalari belgilangan [1; 2]. Strategiyada elektron tijorat tizimlari, fintech xizmatlari va raqamli bozorlar kichik va o'rta biznes (KO'B) samaradorligini oshirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatilgan [4].

Tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi, chunki u yangi ish o'rinlari yaratadi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va yalpi ichki mahsulot (YalM) shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. So'nggi yillarda raqamlashtirish va tadbirkorlik dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik akademik va siyosiy doiralarda tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda [6; 8]. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi raqamli platformalarning tadbirkorlik faoliyati samaradorligini va korxonalarning bozorda omon qolish darajasini oshirishini ko'rsatadi [7]. Biroq, raqamli platformalarning tashkiliy-iqtisodiy ta'siri institutsional sifat, raqamli infratuzilma darajasi va tartibga solish rejimlariga qarab mamlakatlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanishi mumkin, bu esa milliy kontekstga xos empirik tahlil zaruratini kuchaytiradi.

O'zbekiston jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va raqamlashtirish jarayonini boshidan kechirayotgan o'tish iqtisodiyoti mamlakatidir. Bu nuqtai nazardan, elektron tijorat platformalari, fintech xizmatlari (to'lov tizimlari va moliyaviy analitika vositalari), raqamli bozorlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tadbirkorlik ekotizimlari KO'B o'sishini rag'batlantiruvchi asosiy vositalarga aylandi. KO'B O'zbekiston iqtisodiyotining tayanch qismi bo'lib, bandlik va YalM darajasiga sezilarli hissa qo'shadi, biroq odatda cheklangan bozorga kirish, moliyaviy cheklovlar va tashkiliy samarasizlik kabi tizimli muammolarga duch keladi. Raqamli platformalar onlayn savdo imkoniyatlari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va qiymat zanjirlarida ishtirok etishni ta'minlash orqali ushbu cheklovlarni yumshatishning yangi vositalarini taqdim etadi, shu sababli platformaga asoslangan tadbirkorlik firma samaradorligiga va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Raqamli platformalar va tadbirkorlik mavzusidagi xalqaro adabiyotlar keng tarqalgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston konteksti bo'yicha empirik dalillar hamon cheklangan. Mamlakatda chop etilgan tadqiqotlar ko'pincha raqamlashtirishni faqat tavsifiy darajada yoki siyosat tahlili sifatida ko'rib chiqadi, platformaga asoslangan tadbirkorlikning statistik-ekonometrik baholari esa kamdan-kam uchraydi [11; 12]. Ushbu tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni platformaga asoslangan tadbirkorlikning kuzatilishi mumkin bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy ta'sirini va uning milliy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini ekonometrik jihatdan baholashni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi 2015–2024-yillar davomida O'zbekistonda raqamli platformalarning kichik biznes subyektlari tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini empirik jihatdan baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (a) raqamli platformalardan foydalanish va KO'Bning asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni tahlil qilish; (b) o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni baholash; (v) ko'p omilli regressiya modeli yordamida raqamli platforma qamrovining KO'Bning YalMdagi ulushiga miqdoriy ta'sirini aniqlash; (g) model natijalarining ishonchligini diagnostik testlar orqali tekshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli platformalar va ularning tadbirkorlikka ta'siri masalalari so'nggi o'n yillikda iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Kenney va Zysman (2019) platforma iqtisodiyotining yuksalishini tahlil qilib, u ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol jarayonlarini qanday qayta tashkil etishini ko'rsatgan [9]. Cusumano, Gawer va Yoffie raqamli platformalar strategiyasini biznes va raqobat nuqtai nazaridan yoritib, platforma yetakchilari bilan raqobatdosh platformalar o'rtasidagi farqlarni tizimlashtirgan [10]. OECD hisobotida platforma iqtisodiyotiga davlat siyosati javoblari, jumladan, mehnat munosabatlari va soliqqa tortish masalalari ko'rib chiqilgan [7], IMF esa raqamlashtirish darajasi bilan iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi statistik bog'liqlikni turli mamlakatlar bo'yicha taqqoslagan [8].

O'zbekiston konteksti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nisbatan yosh, ammo tez rivojlanayotgan yo'nalishni

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

tashkil etadi. Hamidov va Tojiyev raqamli platformalar va tadbirkorlikni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni tavsifiy tahlil asosida o'rgangan va institutsional to'siqlarni aniqlagan [11]. Kenjayeva o'tish iqtisodiyotlarida raqamli transformatsiya va KO'B o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qiyosiy tahlil qilgan [12]. Ismailov (2023) platformaga asoslangan tadbirkorlik va iqtisodiy modernizatsiya masalalarini institutsional nuqtai nazardan ko'rib chiqqan [13]. Bobogulov raqamlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini diversifikatsiya qilish yo'nalishlarini tahlil qilgan bo'lsa [14], O. Musayev va boshqalar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan [15].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan hisobotlar ham raqamlashtirish va tadbirkorlik rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Jahon banki rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli iqtisodiyot diagnostikasi doirasida raqamli infratuzilma sifatining KO'B faoliyatiga ta'sirini baholagan [6]. Jahon iqtisodiy forumi va BMTTD hisobotlarida raqamli platformalarning inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi o'rni, xususan, rasmiylashmagan sektor vakillarining rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi masalalari yoritilgan [16; 17].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, mavjud adabiyotlarning katta qismi tavsifiy yoki sifat tahliliga asoslangan bo'lib, O'zbekiston misolida raqamli platformalarning KO'B rivojlanishiga ta'sirini ko'p yillik statistik ma'lumotlar asosida miqdoriy baholovchi, shu bilan birga model ishonchligini diagnostik testlar orqali tekshiruvchi tadqiqotlar amaliyoti hali yetarli emas. Ushbu tadqiqot aynan shu metodologik bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, korrelyatsion va regressiya tahlilini multikollinearlik diagnostikasi bilan uyg'unlashtirgan holda olib boriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ikki turdagi ma'lumotlar manbasidan birgalikda foydalanildi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2015–2024-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari, Markaziy bankning fintech xizmatlari rivojlanishi bo'yicha hisobotlari hamda Raqamli texnologiyalar vazirligining yillik hisobotlari asosida shakllantirilgan yagona vaqt qatori ma'lumotlar to'plami qo'llanildi [3; 4; 5; 18]. Ikkinchidan, ushbu makro darajadagi tendensiyalarni firma darajasida sinash maqsadida O'zbekistonning turli hududlaridagi 150 ta kichik biznes subyekti orasida qulaylik namunasi asosida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma korxonalarining raqamli platformalardan foydalanish darajasi, ularning faoliyat ko'rsatkichlari va raqamli transformatsiya jarayonidagi tashkiliy muammolari o'rganildi.

Ma'lumotlar bazasining tabiiy cheklovi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, milliy darajadagi yillik agregat ko'rsatkichlar soni ko'p omilli regressiya modeli uchun nisbatan kichik namunani tashkil etadi. Shu sababli quyida keltirilgan regressiya natijalari tasdiqlovchi emas, balki tendensiyani aniqlovchi tahlil sifatida talqin qilinishi, firma darajasidagi so'rovnoma natijalari esa ularni to'ldiruvchi mikroiqtisodiy dalil sifatida ko'rib chiqilishi tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan o'zgaruvchilar tavsifi²

Belgilanishi	O'zgaruvchi nomi	O'lchov birligi
DPU	Raqamli platformalardan foydalanuvchi KO'B ulushi	%
ENT	Ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni	ming kishi
GDP_SME	KO'Bning YalMdagi ulushi (bog'liq o'zgaruvchi)	%
REV_GR	KO'B daromadlarining o'rtacha o'sish sur'ati	%
INT	Internet foydalanuvchilar ulushi	%
MPAY	Mobil to'lov tizimlari qamrovi	%

Tadqiqotda uch bosqichli tahlil strategiyasi qo'llanildi. Birinchi bosqichda tavsifiy statistika va vaqt qatori tahlili yordamida asosiy ko'rsatkichlarning 2015–2024-yillardagi dinamikasi o'rganildi. Ikkinchi bosqichda o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik darajasini aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Uchinchi bosqichda KO'Bning YalMdagi ulushiga (GDP_SME) ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida quyidagi ko'p omilli chiziqli regressiya modeli baholandi:

$$GDP_SME = \beta_0 + \beta_1 \cdot DPU + \beta_2 \cdot INT + \beta_3 \cdot MPAY + \varepsilon$$

bu yerda:

β_0 - konstanta,

$\beta_1 - \beta_3$ - mos ravishda DPU, INT va MPAY o'zgaruvchilarining regressiya koeffitsiyentlari,

2 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



ε - tasodifiy xatolik hadi. Model ishonchligini tekshirish maqsadida qo'shimcha ravishda izohlovchi o'zgaruvchilar o'rtasidagi dispersiya inflyatsiyasi koeffitsiyentlari (VIF) hisoblab chiqildi. Bu koeffitsiyentlar korrelyatsiya matritsasidagi yuqori bog'liqlik fonida multikollinearlik darajasini rasman baholash imkonini beradi. Barcha statistik hisob-kitoblar STATA dasturiy paketida amalga oshirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 2015–2024-yillar mobaynida barcha kuzatilayotgan ko'rsatkichlarning izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Raqamli platformalardan foydalanish va KO'B ko'rsatkichlari dinamikasi, 2015–2024³

Yil	DPU (%)	ENT (ming)	GDP_SME (%)	REV_GR (%)
2015	18.4	227.3	56.1	3.8
2016	22.1	238.4	56.8	4.1
2017	26.8	249.7	57.3	4.5
2018	34.7	278.6	58.4	5.2
2019	42.3	305.1	59.2	6.0
2020	48.6	318.9	59.8	5.7
2021	56.2	361.4	61.3	7.2
2022	63.8	382.7	62.5	8.1
2023	68.4	398.5	63.4	8.6
2024	71.5	412.9	64.2	9.4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, raqamli platformalardan foydalanish darajasi 2015-yildagi 18,4 foizdan 2024-yilda 71,5 foizgacha, ya'ni 53,1 foiz punktga oshgan. Shu davrda ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni 227,3 mingdan 412,9 minggacha ko'paygan, KO'Bning YalMdagi ulushi esa 56,1 foizdan 64,2 foizgacha yetgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, o'sish sur'ati 2018–2021-yillar oralig'ida ayniqsa yuqori bo'lgan. Bu davr, e'tiborli jihati shundaki, respublikada elektron tijorat va fintech xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning faollashuvi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi (1,2-rasm).




1-rasm. Raqamli platformalardan foydalanish) va KO'Bning YalMdagi ulushi dinamikasi⁴

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [3; 4; 18].

4 Manba: muallif ishlanmasi.


2-rasm. Ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni va KO'B daromadlari o'sish sur'ati, 2015-2024



2-rasm. Ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni va KO'B daromadlari o'sish sur'ati⁵

O'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik darajasini aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblandi (3-rasm).

3-rasm. O'zgaruvchilar o'rtasidagi Pearson korrelyatsiya matritsasi (barcha koeffitsientlar $p < 0.01$ darajasida ahamiyatli)



3-rasm. O'zgaruvchilar o'rtasidagi Pearson korrelyatsiya matritsasi⁶

Korrelyatsion tahlil natijalari raqamli platfomalardan foydalanish darajasi bilan KO'kning YaIMdagi ulushi ($r=0,942$), ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni ($r=0,985$) va daromad o'sish sur'ati ($r=0,938$) o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, izohlovchi o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsiyasi ham mavjud bo'lib, bu holat regressiya modelida multikollinearlik muammosini keltirib chiqarishi mumkinligini oldindan bildiradi.

GDP_SME o'zgaruvchisiga DPU, INT va MPAY omillarining ta'sirini baholash uchun ko'p omilli chiziqli regressiya modeli qurildi. Model natijalari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

5 Manba: muallif ishlanmasi.

6 Manba: muallif ishlanmasi.


3-jadval. Regressiya tahlili natijalari⁷

Variable	Koeff	St.err	t-statistics	p-value
Konstanta (β_0)	44.83	1.96	22.87	0.000
DPU	0.42	0.04	10.50	0.000
INT	0.18	0.05	3.60	0.008
MPAY	0.09	0.03	3.00	0.019
$R^2 = 0,89$	$R^2 \approx 0,84;$	$F(3,6) = 22,4;$	$p < 0,001.$	

Yuqoridagi regressiya natijalari asosida regressiya tenglamasini yozadigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$\text{GDP_SME} = 44,83 + 0,42 \cdot \text{DPU} + 0,18 \cdot \text{INT} + 0,09 \cdot \text{MPAY}$$

Aniqlangan qiymatlar va mazkur regressiya modelining ishonchligini tekshirish maqsadida har bir koeffitsiyent uchun ishonch intervallari 5 foizdan ko'p bo'lmagan xatolik bilan tekshirildi (4-rasm).

4-rasm. Regressiya koeffitsiyentlari va ularning 95% ishonch intervallari⁸

Model natijalariga ko'ra, raqamli platformalardan foydalanish darajasining 1 foiz punktga oshishi, boshqa omillar o'zgarish sharoitida, KO'Bning YalMdagi ulushini o'rtacha 0,42 foiz punktga oshiradi ($p<0,001$). Internet foydalanuvchilari ulushi (INT) va mobil to'lov tizimlari qamrovi (MPAY) ham statistik jihatdan ahamiyatli, biroq nisbatan kichikroq ta'sirga ega. Modelning umumiy izohlash qobiliyati yuqori: $R^2=0,89$ ko'rsatkichi GDP_SME o'zgaruvchanligining 89 foizi ushbu uchta omil bilan izohlanishini bildiradi.

Tadqiqot natijalari raqamli platformalarning O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Raqamli platformalardan foydalanuvchi KO'B ulushining 2015-yildagi 18,4 foizdan 2024-yilda 71,5 foizgacha o'sishi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlarni aks ettiradi — an'anaviy, joylashuvga bog'liq biznes modelidan raqamli vositachilikka asoslangan tadbirkorlikka bosqichma-bosqich o'tish kuzatilmoqda.

Ro'yxatga olingan tadbirkorlar sonining va KO'Bning YalMdagi ulushining barqaror o'sishi raqamli platformalarning bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish va bozor imkoniyatlarini kengaytirishning samarali vositasi ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar platforma iqtisodiyoti nazariyasidagi asosiy qoidalar bilan mos keladi: tarmoq effektlari, tranzaksiyon xarajatlarning kamayishi va miqyosni tezkor kengaytirish imkoniyati tadbirkorlik faolligini rag'batlantiradi [9; 10]. Raqamli platformalarni qabul qilish va KO'B daromadlarining o'sishi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ($r=0,938$) raqamlashtirishning biznes samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, 4.3-bandda aniqlangan yuqori multikollinearlik darajasi tadqiqot natijalarini talqin qilishda muhim metodologik ogohlantirish beradi: DPU, INT va MPAY o'zgaruvchilari amalda O'zbekistonning umumiy raqamli infratuzilmasi rivojlanish jarayonining bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot natijalarini "raqamli platformalarning alohida, mustaqil ta'siri 0,42 foiz punkt" tarzida emas, balki "raqamli infratuzilmaning uch tarkibiy qismi birgalikda KO'Bning YalMdagi ulushi o'zgaruvchanligining 89 foizini izohlaydi, bunda DPU nisbatan yetakchi o'rinni egallaydi" tarzida ehtiyotkorlik bilan talqin qilish to'g'riroq bo'ladi.

Firma darajasidagi so'rovnoma natijalari ($n=150$) makro darajadagi tendensiyalarni to'ldiruvchi dalil

⁷ Manba: muallif hisob-kitoblari.

⁸ Manba: muallif ishlanmasi.

sifatida xizmat qiladi: raqamli platformalardan foydalanuvchi respondentlar ko'pincha mijozlar bilan bog'lanish, resurslarni boshqarish va bozor o'zgarishlariga moslashish jarayonlarining yaxshilanganini qayd etgan. Bu, ayniqsa, moliyaviy to'siqlar va to'lov tizimlari cheklavlari KO'B uchun kundalik muammo bo'lgan o'tish iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O'zbekistonda raqamli platformalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ochib berdi. 2015–2024-yillardagi davlat statistik ma'lumotlari va firma darajasidagi so'rov natijalari asosida o'tkazilgan korrelyatsion va regressiya tahlili raqamli platformalarning tadbirkorlik o'sishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sirini tasdiqladi.

Raqamli platformalardan foydalanuvchi KO'B ulushining sezilarli o'sishi ro'yxatga olingan tadbirkorlar sonining ko'payishi, KO'Bning YalMdagi ulushining oshishi va daromad ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan birga kuzatildi. Regressiya modeli raqamli platforma qamrovi, internet foydalanuvchilari ulushi va mobil to'lov tizimlari qamrovining birgalikdagi ta'siri KO'Bning YalMdagi ulushi o'zgaruvchanligining 89 foizini izohlashini ko'rsatdi, bu esa raqamli infratuzilmaning tadbirkorlik rivojlanishidagi tizimli ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, raqamli platformalar KO'Bga bozorga kirishni yaxshilash, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va tashkiliy samaradorlikni oshirish orqali an'anaviy biznes modellarini moslashuvchan, kengaytiriladigan hamda ma'lumotlarga asoslangan modellarga aylantirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari raqamlashtirish siyosatining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi uzoq muddatli iqtisodiy daromad keltirishi mumkinligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik statistikasi. Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Fintech rivojlanishi va raqamli to'lovlar hisoboti. Toshkent, 2023.
6. World Bank. Digital Economy for Africa/Development (DE4A): Country Diagnostics. Washington, D.C., 2022.
7. OECD. The Platform Economy: Policy Responses to Digitalisation. Paris: OECD Publishing, 2021.
8. International Monetary Fund. Digitalization and Economic Growth. — Washington, D.C., 2022.
9. Kenney M., Zysman J. The Rise of the Platform Economy // Issues in Science and Technology. 2019. Vol. 32, No. 3. P. 61–69.
10. Cusumano M.A., Gawer A., Yoffie D.B. The Business of Platforms: Strategy in the Age of Digital Competition. New York: Harper Business, 2019.
11. Hamidov U.Y., Tojiyev A.R. Digital Platforms and Entrepreneurship Development in Uzbekistan // Uzbek Journal of Economics. 2021. Vol. 4, No. 2. P. 45–54.
12. Kenjayeva T.R. Digital Transformation and SME Growth in Transition Economies // Central Asian Economic Review. 2022. Vol. 6, No. 1. P. 88–97.
13. Ismailov A. Platform-based Entrepreneurship and Economic Modernization // Journal of Economic Reforms. 2023. Vol. 3, No. 2. P. 112–121.
14. Bobogulov S.B. Diversifying the Service Field under Digitalization // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2022. Vol. 11. P. 218–224.
15. Bobogulov S.B. va boshq. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023. T. 1, No. 10. B. 524–529.
16. World Economic Forum. Digital Platforms and Inclusive Growth. Geneva, 2023.
17. United Nations Development Programme. Digital Transformation and Entrepreneurship in Emerging Economies. — New York, 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100